

**SINF DAN TASHQARI DARSLARDA BADIY ASARLARNING O'RGANILISHI****Rashidova Aziza Xo'jamberdi qizi***Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llay olish, layoqatlarini shakllantirish, ta'limning eng dolzarb masalalarini e'tirof etish, o'quvchilarda sinfdan tashqari mashg'ulotlar ko'nikmasini shakllantirish, mazkur maqolaning mazmuni hisoblanadi.

Kalit so'zlar: metodlar, intonatsiya, ifodali o'qitish uslubi, saviya.

Adabiyot o'qitishda ma'ruza, suhbat, ijodiy o'qish, reproduktiv, evristik, tadqiqot, ekskursiya, mustaqil ish metodlaridan keng foydalaniladi.

O'qituvchi va o'quvchi faoliyatining o'zaro aloqasi xususiyatiga ko'ra ko'rgazmali tushuntirish, ijodiy o'qish, reproduktiv va tadqiqot metodlariga taqsimlanadi. Tabiiyki, bu metodlarning barchasi alohida-alohida, sof holda qo'llanilmaydi. Mustaqil o'qishni tashkil etishda ulardan kompleks foydalanib kelinishi tabiiy zaruratdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ko'p yillik pedagogik faoliyatimiz davomida o'quvchilarni ifodali o'qishga o'rgatish murakkab jarayon bo'lib, asar janri, tavsif uslubi, yozuvchi nuqtai nazari bilan bog'liq usullarni qo'llash ijobiy samara beradi, degan xulosaga keldik.

O'qituvchining ifodali o'qishi o'quvchilar faoliyatida o'z aksini topishi uchun quyidagi usullarni qo'llash samarali hisoblanadi: – audio va video yozuvlar orqali yozuvchi yoki badiiy so'z ustalari tomonidan o'qilgan badiiy matnni tinglash; (Zulfiya, E.Vohidov, A.Oripov, O.Hojieva, O.Matjon, M.Yusuf, S.Sayyid, F.Afro'z, E.Shukurlarning radioeshittirish va teleko'rsatuvlarda o'qigan she'rlaridan foydalanish mumkin).¹⁴⁶

– o'zaro bog'liq matnlarda nutqning to'g'ri ohangini ishlab chiqish (intonatsiya, marom, pauzalarni o'z o'rniga qo'yish, mantiqiy urg'ularni aniqlash);

– ko'chirmalar, maqollar, matallar, aforizmlarni yoddan ifodali o'qishga o'rgatish; (televidenie orqali ko'rsatuvlar oralig'ida o'zbek xalq maqollari, iboralar ma'nosi yuzasidan beriladigan sharhlardan foydalanish shaklida. Masalan, 5-sinfda maqollarga bag'ishlangan mashg'ulotlarda ko'chma ma'no bu janrning yetakchi xususiyatlaridan biri ekanligiga e'tibor qaratiladi.

Jumladan, "Qatorida noring bo'lsa, yuking yerda qolmaydi" maqoli zamirida insonning sadoqatli do'stlari ko'p bo'lsa, ularning qo'llab-quvvatlashi, yordami bilan mushkullari oson bo'lishi, har qanday qiyinchilikni osonlikcha yengib o'tishi haqidagi fikr ilgari surilgan. Aslida ham shunday: katta karvon hamrohligida safarga chiqqan kishi ko'zlagan manziliga hech bir talofatsiz yetib olishi shubhasizligi o'z ma'nosida qo'llangan.

¹⁴⁶ Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: Fan va texnologiya, 2008. – 25-bet.



9-sinfda Ikrom Otamurodning “O’rin” dostonini ifodali o’qishga o’rgatishda olam va odamning yaralishi, hayotda har kimning o’z o’rni borligi yoki aksinchaligi anglanishiga erishiladi.

Shoir kun va tun, yer va osmon, botin va zohir, sobitlik va lafzsizlik, diyonat va nafs, ibtido va intiho, toqatsizlik va chidam, keksa va yosh kabi bir-biriga zid tushunchalarni yonma-yon qo’llash orqali inson hayotining dramatik holatlarini aks ettirishga harakat qilganiga e’tibor qilaylik:

Andisha nochor kibor tovidan.

Qadr dog’lanadi ilahsa jabr.

Burd yo’qolgaydir beburd sovidan.

Dilga madaddir dildagi sabr¹⁴⁷.

Dostonda lirik qahramon yuragini qiymalab og’riq berayotgan dard-alamlar qisqagina “... Nimadir... .. Qachondir... .. Kimdir...” misralariga mohirlik bilan singdirilgan.

Sinfidan tashqari o’qish mashg’ulotlarida ifodali o’qish rejasi o’qituvchining yoddan o’qishi, asarning g’oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida suhbat o’tkazish, nutq kompozitsiyasi ustida ishlash, intonatsiya va maromni aniqlash, qayta hikoyalash kabi faoliyat turlarini ko’zda tutgan holda tuziladi.

Asarni ifodali o’qish doim uning tahlili bilan bog’liq. Tahlil badiiy asarning o’ziga xosligi haqida o’quvchilar tasavvurini chuqurlashtiradi, undagi nafosatni his qilishga imkon beradi.¹⁴⁸

Masalan, 6-sinfda o’quvchilarni Hamid Olimjon ijodi bilan chuqurroq tanishtirishga mo’ljallangan mashg’ulotlarda adabiyotshunos olim N.Karimovning “Hamid Olimjon” nomli ma’rifiy-biografik romanidan unumli foydalanish o’quvchini shoir shaxsiyatining noma’lum qirralaridan voqif etadi.¹⁴⁹

O’qituvchining kirish so’zi “Eng gullagan yoshlik chog’imda”, “Xayolimda bo’lding uzun kun”, “O’rik gullaganda” kabi she’rlarning yozilish tarixi bilan boyitilsa, shoir ijodiy ustaxonasi haqida kengroq tushunchaga ega bo’linadi.

“O’rik gullaganda” – tabiatning yaratuvchanlik qudratidan junbushga kelgan sohir qalb tuyg’ulari mahsuli. She’r 1937-yilning 30-martida yozilgan, Qozog’iston safaridan qaytgan kuni saharlab uyg’ongan shoir ilohiy mo’jiza qoshida lol qoladi. “Derazadan quyosh yog’dusi emas, balki allaqanday pushtirang shu’la tushib, uning ko’zini qamashtirib yubordi.

Kuni kecha u Olmaotaga yo’l olganida, hali mast uyquda yotgan o’rik daraxti chaman bo’lib ochilgan edi”¹⁵⁰. Shoirni to’lqinlantirgan bu latiflikdan ohorli tashbehlar dunyoga keladi: “Novdalarni bezab g’unchalar, Tongda aytdi hayot otini...” Ushbu voqea hikoya qilingach, she’r yoddan ifodali o’qilishi, unga bastalangan qo’shiq eshittirilishi o’quvchilarni xayolan lirik qahramonning o’sha paytda tuygan holatni

¹⁴⁷ Ikrom Otamurod. O’rin. //Sharq yulduzi. –T.: 2013. №3, – 32-bet.

¹⁴⁸ S.I. Kambarova. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil. –T.: “Fan va texnologiya”, 2016. – 140 b.

¹⁴⁹ Karimov N. Hamid Olimjon. –T.: Sharq, 2013. –144-bet

¹⁵⁰ Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug’ati. –T.: Sharq, 2010.



chuqurroq anglashga, asar g'oyasini idrok qilishga yordam beradi. Turli janrdagi asarlarni idrok etish asosida o'quvchi so'z zamiridagi ma'no tovlanishlaridan zavqlanadi, inson ruhiyati bilan bog'liq sir-sinoatlarni anglash sari qadam qo'yadi.

Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida badiiy asar yoki undan parchalar o'rganishning yakuniy bosqichida leksikani sharhlash elementlari bilan suhbat o'tkazish matn mazmunini chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida suhbat. Suhbat jarayonida adabiy material mohiyati o'qituvchi bergan savollarga o'quvchilarning javoblari orqali ochib beriladi.

Metodist olim Q. Husanboeva har tomonlama puxta tuzilgan savollar mazkur metodning muhim xususiyati ekanligini alohida e'tirof etgan holda "tafakkurning bilmaslikdan bilishga, bilishning chalaligi yoki noaniqlikdan to'liq va aniq shakliga o'tkazadigan samarali vosita"¹⁵¹ sifatida baholaydi.

Mashg'ulotga tayyorgarlik chog'ida savollarning xususiyatini o'ylab ko'rish, maqsadini aniqlab olish muhim. Suhbat mantiqiy izchilligi, aniqligi va mazmuni bilan ajralib turadi.

Savollar o'rganilayotgan asarni anglashga yo'naltirilishi, o'quvchilar faoliyatini jadallashtirishi, mustaqil xulosa chiqarish va umumlashtirishga harakat qildirishi lozim. Yangi materialni o'rganish, mustahkamlash va umumlashtirish jarayonida uyushtiriladigan suhbat o'quvchilarning bilim darajasini baholashga yordam beradi.

Ulug'bek Hamdamning 8-sinflarga mustaqil o'qishga tavsiya etish mumkin bo'lgan "Na'matak" mini romani butun borliq sinoatlarini o'zida jo etgan Ism, uning mohiyatini anglatish muammosiga bag'ishlangan.

"Har qanday hikmatning ibtidosida fikr turadi, fikr o'zlashgach, hikmat maqomlarining pillapoyasi boshlanadi. Maqomlar hududiga o'tgan shaxs oqimlar shamolida g'ildirab ketavermaydi, har on, damning ASL mazmunini uqib, Ismlar siriga boraveradi"¹⁵². Asar yuzasidan quyidagicha savollar tuzish adib g'oyasi, maqsadmuddaosini tushunishga imkon yaratadi:

- 1.Na'matak obraziga qanday g'oya singdirilgan? (Insonning O'zligini anglashi)
2. Bobolar o'rtasidagi nifoqning asl sababi nimada edi? (Nafs)
3. Ajdodlar adovatiga nima barham beradi? (Avlodlar muhabbati)
4. Inson qachon Asliga yetishadi? (Ismini topganida)
5. Asarda qo'llanilgan hikmatning kaliti qaysi satrlarga yuklangan? ("Qanday ko'z-la boqsa, odam olamga, shunday javob aylar olam odamga, degan ekan donishlar, degan ekan, degan, to'liq hukm shaklida)¹⁵³

3.Suhbat chog'ida muomala madaniyatiga o'rgatish ham o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashga xizmat qiladi.

¹⁵¹ Husanboyeva Q. Adabiyot – ma'naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. –T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 119-6er.

¹⁵² Ulug'bek Hamdam. Na'matak. //Sharq yulduzi. –T.: 2013, №3. – 93-bet.

¹⁵³ Turdimov Sh. Ismdagi sir. //Sharq yulduzi. –T.: 2013, №3. – 96-bet.



Ta'kidlash joizki, o'qituvchi muammoli vaziyatlar yaratishga yo'naltirilgan dastlabki savollardan oq asarda qo'yilgan asosiy muammo mohiyatini ochishni nazarda tutishi zarur.

O'quvchilar javobini o'z vaqtida umumlashtirish, aniqlik kiritish va to'ldirishga qaratilgan suhbat o'qituvchidan alohida diqqat-e'tibor talab etadi. Suhbat erkin bahs-munozara tarzida o'tkazilib, jarayonda o'quvchi javoblariga mustaqil fikrlash sifatida qaraladi: unda tezis (isbotlanayotgan narsa) va isbot bo'ladi.

Agar o'quvchi o'rganilayotgan asar janrini aniqlashga doir savolga javob berish topshirig'ini olgan bo'lsa, eng avvalo, tezis tarzidagi fikrini aytishi kerak.

O'quvchining izohi, isbotlari uning haqiqiy bilimni aniqlashga yordam beradi. O'quvchini baholashda javobning to'g'riligi, fikrini izchil bayon etishi, o'rganilgan materialni tushunish darajasi (isbot uchun keltirgan fikrlarining aniqligi) hisobga olinishi zarur.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, Har qanday mamlakatning jahon hamjamiyatida tutgan o'rni, e'tibori va istiqboli intellektual salohiyati bilan belgilanadi.

Axborot-kommunikatsiya asrida, inson huquqlari va erkinligini himoya qiladigan demokratik, huquqiy davlat hamda fuqarolik jamiyati barpo qilayotgan hozirgi davrda intellektual salohiyatga bo'lgan talab yanada oshdi.

Mazkur muammo yuzasidan ushbu maqolada sinfdan tashqari o'qitish, integratsiyani to'g'ri yo'lga qo'yish, o'rganilgan yangi mavzu va mustaqil ishlarning mazmunini takomillashtirish, badiiy asar matni ustida individual va jamoa bo'lib ishlashga yo'naltiruvchi texnologiyalarni samarali qo'llashga doir qarashlar ilgari suriladi.

Mustaqil o'qib-o'rganishsiz adabiy ta'limda muhim natijaga erishish mumkin emas. Maktab paytida mutolaa ko'nikmasi shakllantirilmas ekan, o'quvchida kitob o'qishga bo'lgan qiziqish asta-sekinlik bilan yo'qolib, keyinchalik butunlay so'nadi.

Bugun maktablarda adabiyotdan sinfdan tashqari o'qishni tashkil etishda yoppasiga qoloqlik mavjudligi barchaga ayon. Maktablarning kitob fondi zarur adabiyot namunalari bilan to'ldirilmaganligi, aksariyat kutubxona xodimlari aynan sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlariga yordam berish uchun tayyorgarlik ko'rmasligi, bu boradagi malakasizliklar o'quvchilarni mutolaaga qiziqitira olmaslik kabi nuqsonlarni keltirib chiqarmoqda. Binobarin, ularning bari o'quv tarbiya jarayoni tizimida metodik jihatdan kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligini ko'rsatib turibdi. Umuman, ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishishda pedagogik vazifalar aniqlashtirilib, islohotlarda hujjatlashtirilib borilmas ekan, sinfdan tashqari o'qishni tashkil etish usullari ham takomillikka muhtoj bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Богданова О. Ю., Леонов С.А., Чертов В.Ф.. Методика преподавания литературы – М. Издательский центр “Академия”, 2004. ст. – 399.



2. Berdak Yusuf. Mumtoz adabiy asarlar lug'ati. –T.: “Sharq”, 2010. 11-bet.
3. Karimov N. Hamid Olimjon. –T.: “Sharq”, 2013. –144-bet
4. Turdimov Sh. Ismdagi sir. “Sharq yulduzi”, –T.: 2013, №3. – 96-bet.
5. Ulug'bek Hamdam. Na'matak. “Sharq yulduzi”, –T.: 2013, №3. – 93-bet.
6. S.I. Kambarova. Mustaqil mutolaa va adabiy tahlil. –T.: “Fan va texnologiya”, 2016. – 140 b.
7. Yo'ldoshev J., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008. – 25-bet.